




elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.3 (3)
2025

MUNDARIJA

ISLOM TARAQQIYOT BANKI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBEKTLARINI KREDITLASH TURLARI.....	2
Otabek Mutalov.....	2
Gulbahor Nishanova.....	2
MURABAHA - ISLOMIY MOLIYA SHARTNOMASI TURI SIFATIDA.....	9
Otabek Mutalov.....	9
Gulbahor Nishanova.....	9
ISLOM TARAQQIYOT BANKINING TADBIRKORLIK SUBEKTLARINI KREDITLASH FAOLIYATIGA OID NORMATIV HUJJATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	14
Otabek Mutalov.....	14
Gulbahor Nishanova.....	14

ISLOM TARAQQIYOT BANKI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBEKTLARINI KREDITLASH TURLARI

Otabek Mutalov

o.mutalov@auni.uz

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Angren universiteti dotsenti v.b.

Gulbahor Nishanova

g.nishanova@auni.uz

Angren universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islomiy taraqqiyot banki tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda qo'llaniladigan kredit shartnomalarining turlari, ularning tasnifi va mohiyati yoritilgan. Mualliflar Greys, Iqbol, Sudin Xorun, Ibrohim Varde, R.I. Bekkin, Vohidov va Erlan Baydaulet kabi olimlar tomonidan taklif qilingan shartnoma turlari bo'yicha tasniflarni solishtirgan holda tahlil qiladi. Asosiy e'tibor investitsion va savdo-sotiqqa asoslangan moliyalashtirish shakllariga qaratilgan. Muzoraba va mushoraka shartnomalari orqali sherikchilik asosida moliyalashtirishning huquqiy va iqtisodiy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, murobaha, ijara, istisno' va salam kabi shartnomalar orqali savdoni moliyalashtirish mexanizmi ham o'rganilgan. Maqolada ITB tomonidan aynan qaysi shartnoma turlari O'zbekistonda qo'llanilayotgani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliyalashtirish, kredit shartnomalari, muzoraba, mushoraka, murobaha, ijara, investitsion moliyalashtirish, islomiy banklar, foyda va zarar taqsimoti, islomiy shartnomalar tasnifi.

Islomiy moliya tarmog‘i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovasion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev IHT TIV kengashi 43-sessiyasi ochilish marosimida so‘zlagan nutqida “Islom olami ulkan iqtisodiy, investision salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, **Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investision hamkorligini kengaytirish**, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo‘llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo‘lib xizmat qiladi”, – deya ta’kidlab o‘tgan edi¹. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi islomiy moliyalashtirishga asoslanib faoliyat ko‘rsatuvchi banklar, investisiya fondlari va kompaniyalar mablag‘larini O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda hukumatimiz islomiy moliyalashtirish tizimining asosiy instituti bo‘lgan Islom taraqqiyot banki guruhi bilan aloqalarni ancha rivojlantirdi.

ITBning moliyalashtirish bilan bog‘liq kredit shartnomalari mazmuni, tuzilishi va boshqa me‘zonlarga ko‘ra bir nechta turlarga bo‘linadi. Bu borada olimlar tomonidan turli tasniflar keltiriladi.

Greys va Iqbol islomiy moliya shartnomalarini: bitimni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tranzaksion shartnomalar va moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etadigan shartnomalarga ajratadi².

Tranzaksion bitimlar real sektordagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, savdo, ayirboshlash va iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishni qamrab oladi. Vositachilik bitimlari tranzaksion bitimlarning bajarilish shaffofligi va samaradorligini yengillashtiradi. Ular asosan monitoring qilish hamda kapital aylanishini kuzatishga ruhsat etuvchi shartnomalarni o‘z ichiga oladi. ITBning moliya ishlari bo‘yicha vitse prezidenti Zamir Iqbol sohasi iqtisodchi bo‘lganligi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев ИХТ ТИВ кенгаши 43-сессияси очилиш маросимида сўзлаган нутқи. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/>.

² El-Hawary, D., Grais, W., & Iqbal, Z., Diversity in the regulation of Islamic Financial Institutions, - Washington: The Quarterly Review of Economics and Finance № 46, 2007, -p. 280-282.

sababli ham ITB tomonida foydalanilayotgan shartnomalarni tasniflashda iqtisodiy jihatdan yondashgan bo‘lib, huquqiy me‘zonlarga asoslanmagan.

O‘z navbatida, malayziyalik olim Sudin Xorun islomiy bank tizimida ishlatiladigan shartnomalarni besh turga bo‘ladi:

- 1) toifaga foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan bitimlar;
- 2) oldi-sotdiga asoslangan bitimlar;
- 3) yig‘im va komissiyalarni o‘z ichiga olgan bitimlar;
- 4) bepul xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bitimlar;
- 5) yordamchi xizmatlarni o‘z ichiga olgan bitimlar³.

Bu tasnifda shartnomalar turi bo‘yicha guruhlariga ajratilgandir.

Ibrohim Varde esa, islomiy moliyaviy shartnomaarni mazkur bitimdan foydalanishda vujudga keladigan huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar mazmuniga asoslanib tasniflaydi. Shunga muvofiq ravishda u birinchi toifaga sotishga asoslangan murobaha, musovama, istisno‘, salam, tavarruq va iyna kabi shartnomalarni kiritadi. Ikkinchi guruhdagi shartnomalarga ijara (yollash)ga asoslangan bitimlarni kirgizadi. Uchinchi guruhga esa foyda va zararlarni bo‘lishish hamda ulushli ishtirokka (muzoraba va mushoraka) asoslangan shartnomalar kiradi⁴.

Islomiy moliya sohasidagi rossiyalik mutaxassis R. I. Bekkin islomiy moliyalashtirishga oid shartnomalarni quyidagi guruhlariga bo‘ladi:

- foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmiga asoslangan shartnomalar yoki moliyalashtirishning investisiyaviy turlari: muzoraba, mushoraka;
- qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar: murobaha, salam, shuningdek, istisno‘ va ijara⁵.

Vohidov bu kabi shartnomalarning eng ko‘p tarqalgan 3 guruhini ko‘rsatib o‘tadi: kapitalda ishtirok etishga asoslangan shartnomalar, qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan shartnomalar va bank komissiyalarini to‘lashga asoslangan shartnomalar⁶.

Quyida Vohidovning ushbu tasnifi chizma ko‘rinishida berilgan:

³ С.С.Харон, N.W.Azmi. Исламий молиялар ва банк тизими. Фалсафаси, тамойиллари ва амалиёти. [Матн] – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б 187-190.

⁴ Ibrahim V. Islamic Finance in the Global Economy, - Edinburg. Edinburg university press.– 2006. –Б. 7-25.

⁵ Р.И.Беккин. Ислам иқтисодий модели ва замон [Матн], – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б 186.

⁶ Вахитов Р. Р. Исламий молиявий инструментлар: солиққа тортиш амалиётидаги ғоялар, -М.: Налоговед. № 9. – 2009. –б. 45-48.

Shuningdek Qozog‘istonlik olim Erlan Baydaulet esa, islomiy banklar tomonidan foydalaniladigan shartnomalarni quyidagicha turlarga ajratadi⁷:

- 1) Sherikchilik shartnomasi (ulushli moliyalashtirish):
 - muzoraba, mushoraka;
- 2) Savdo kelishuvi (qarz bilan bog‘liq moliyalashtirish). Mazkur shartnomalar o‘rtasidagi tafovut aktivlar(shartnoma obekti)ni sotish muddatlari bilan ta’riflanadi:
 - murobaha, ijara, istisno’, salam.
- 3) qo‘shimcha vositalar:
 - qarzi hasan (foizsiz qarz), agentlik to‘lovlari (vakolat, ju’la), sukuk (kapitalni maqsadli qimmatbaho qog‘ozlarga yo‘naltirish).

Yuqoridagi olimlar fikrlari tahlilidan kelib chiqib, ITB tomonidan tadbirkorlik subektlarini kreditlash shartnomalarini moliyalashtirish shakliga ko‘ra 2 guruhga bo‘lish mumkin;

- investitsion shaklda moliyalashtirish;
- savdo-sotiqni moliyalashtirish.

Tadbirkorlik subektini investitsion shaklda moliyalashtirishga muzoraba va mushoraka shakllarida kreditlash kiradi.

Muzoraba shartnomasiga ko‘ra, bir tomon (rabb al-mol) ikkinchi tomonga shariatda taqiqlanmagan faoliyat bilan shug‘ullanish uchun kapitalni ishonib topshiradi, ikkinchi tomon (muzorib) esa, investorning kapitalini boshqarish uchun o‘z bilim va tajribasi bilan ishtirok etadi. Investor biznesni yuritish jarayoniga jalb etilmaydi va kelishilgan muddat yakunida tadbirkor investorga asosiy kiritilgan miqdor va uning foydadaagi ulushini qaytarishi lozim.

Investisiya qilingan kapitaldan kelgan foyda bank va tadbirkor o‘rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq taqsimlanadi. Har qanday zararlarni bank o‘z zimmasiga oladi, muzorib esa bunday holatda o‘zining faoliyati va sa’y-harakati uchun mukofot ololmaydi. Agarda yuzaga kelgan zarar muzoribning aybi bilan vujudga kelganligi isbotlangan hollardagina ikkinchi tomondan zarar qiymati undirib olinishi mumkin.

⁷ Е.А.Байдаулет. Исломий молия асослари [Матн] – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б 34-81.

Misol uchun, 2010 yilda Malayziyada “RHB Islamic Bank” tomonidan Ayeroportga xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyaning biznes loyihasiga muzoraba shartnomasi asosida kapital kiritiladi. Bunda bank robbul-mal – sarmoya egasi, mijoz esa sarmoyani boshqaruvchi – mudorib sifatida faoliyat yuritishiga tomonlar kelishishadi va tegishli shartnoma imzolashadi. Ushbu loyiha doirasida bank bir necha yil yaxshi daromad oladi, mijoz ham bu davr ichida biznesini yaxshigina kengaytiradi. Ammo 2020 yil birinchi choragida Malayziyada muzorib faoliyat yuritayotgan ayeroportga xizmat ko‘rsatish sohasida yuzaga kelgan muammolar tufayli biznesi sezilarli zararlar ko‘radi. Muzorib biznesining rivojlanishida bank kiritgan kapital asosiy rol o‘ynaganligi sababli, 2020 yil birinchi chorak yakuniy hisob-kitoblari bo‘yicha ko‘rilgan barcha zararni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplashga qaror qilib bu qarorini bankka bildiradi. Ammo bankning shar‘iy kengashi bankka mijozning ushbu taklifini qabul qilishga ruxsat bermaydi. Bunda bank bilan mijoz hamkorlik qilayotgan biznes shakli muzoraba bo‘lib, ushbu shartnomada aynan sarmoya egasi barcha xatarlarni o‘z bo‘yniga olishi kerakligini asos qiladi.


Islomiy moliyalashtirishda eksport-importni, loyihaviy va sindikatlashgan moliyalashtirishda, qimmatli qog‘ozlarni chiqarishda islomiy bank aktiv amaliyotlari doirasida mushoraka shartnomasidan foydalaniladi.

Mushoraka (sharika, shirkat) sherikchilik shartnomasi bo‘lib, bu ikki va undan ko‘proq tomonlar o‘rtasida foyda olish maqsadida mehnat resurslari yoki majburiyatlarni, aktivlarni birlashtirish to‘g‘risidagi kelishuvni anglatadi.

Mushoraka shartnomasining bir nechta ko‘rinishlari mavjud. Bugungi kunda ulardan zamonaviy korporatsiyalarda quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda:

- *sharika al-musohama* (hissadorlik jamiyati);
- *sharika al-tadamun* (solidar (umumiy) mas’uliyatli kompaniya);
- *sharika at-tavsiya al-basita* (kommandit sherikchiligi);
- *sharika at-tavsiya bil-asham* (mas’uliyati cheklangan hissadorlik kompaniyasi);
- *sharika al-muhossa* (oddiy sherikchilik);
- *sharika al-mutanaqis* (kamayib boruvchi sheriklik).

Quyidagi chizmada mushoraka shartnomasini amalga oshirish tartibi keltirilgan.



1. Bank va mijoz bitim shartlarini muhokama qiladi va (biznes rejani amalga oshirish uchun) sherikchilikda ishtirok etish to'g'risida kelishuv tuzadi.
2. Bank va mijoz shartnoma talablariga muvofiq, biznes-rejaning amalga oshishi uchun moliyalashtirishni (kelishilgan ulushlarda) amalga oshiradi.
3. Biznes-rejani amalga oshirish doirasida faoliyat natijasi (foyda yoki zarar) yuzaga keladi.
4. Foyda taqsimlanuvchi jamg'armalarni shakllantiradi, zarar esa, biznes-rejani amalga oshirishda ishlatilgan aktivlar qiymatini pasaytiradi.
5. Biznes-rejani amalga oshirishdan kelgan foyda (yoki zarar) mutanosib ulushlarda bank va mijoz o'rtasida taqsimlanadi.

Mushoraka shartnomasi muddatli va muddatsiz bo'lishi mumkin. Muddatsiz shartnoma har qanday vaqtda qolgan sheriklarni boxabar etish sharti ila sheriklarning har biri tomonidan bekor qilinishi mumkin. Ishtirokchilarning biri uni tark etgan taqdirda ham sherikchilik saqlanib qolishi mumkin. Bu holatda sheriklar sherikchilikni tark etgan ishtirokchining ulushini sotib oladi va biznesni davom ettiradi.

ITB tomonidan tadbirkorlikni kreditlashning ikkinchi turi bu savdoni moliyalashtirishdir. Ushbu guruhga murobaha (bo'lib-bo'lib to'lash uchun sotish), ijara (lizing), istisna (pudrat shartnomasiga o'xshash), salam (pudrat shartnomasining turi) kabi shartnomalar kiradi.

ITB tomonidan O‘zbekistonda tadbirkorlik subektlarini kreditlashda faqat ikkinchi turdagi shartnomalar qo‘llaniladi. Ikkinchi bobda ushbu shartnomalar batafsil tahlil qilinadi.

Islomiy moliyalashtirishda foydalaniladigan kreditlash turlarining o‘zaro farqlari quyidagilar:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев ИХТ ТИВ кенгаши 43-сессияси очилиш маросимида сўзлаган нутқи. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/>.
2. El-Hawary, D., Grais, W., & Iqbal, Z., Diversity in the regulation of Islamic Financial Institutions, - Washington: The Quarterly Review of Economics and Finance № 46, 2007, -p. 280-282.
3. Жураева, А. Б. (2020). PRIOR RIGHTS IN TRADEMARK IN UZBEKISTAN, CHINA AND GERMANY COMPARATIVE STUDY.
4. Mutalov, O. B. (2022). Project civil code of the republic of Uzbekistan: Token, blockchain and smart contracts. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), 344-348.
5. С.С.Харон, N.W.Azmi. Исломий молиялар ва банк тизими. Фалсафаси, тамойиллари ва амалиёти. [Матн] – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б 187-190.
6. Ibrahim V. Islamic Finance in the Global Economy, - Edinburg. Edinburg university press.– 2006. –В. 7-25.
7. Р.И.Беккин. Ислом иқтисодий модели ва замон [Матн], – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б 186.
8. Вахитов Р. Р. Исломий молиявий инструментлар: солиққа тортиш амалиётидаги ғоялар, -М.: Налоговед. № 9. – 2009. –b. 45-48.
9. Е.А.Байдаулет. Исломий молия асослари [Матн] – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б 34-81.